

QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA HOZIRGI DAVR VOQELIKLARI**Inagamova F.X. -***TMC Instituti dotsenti, f.f.b.f.d., (PhD)*

Qadriyatlar transformatsiya bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlaridagi xalqlar, etnoslar, insonlar hayotiga ta'sir qilayotgan global sotsiomadaniy tendensiya bo'lib, mazkur jarayonning ta'sirini har bir inson kundalik hayotida sezishi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek jamiyatida yosh oilalarning mustahkamligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etayotgan davrda qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni inobatga olish, ularning yosh oilalar ma'naviy muhitiga dialektik ta'sirini o'rganishning ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekistonda sodir bo'layotgan qadriyatlar tizimidagi transformatsion o'zgarishlar, ma'naviy yangilanishlarning sotsiomadaniy va falsafiy xususiyatlari, zamonaviy o'zbek jamiyatida yosh oilalarning "aksiologik qiyofasi, yosh oilalar mustahkamligida qadriyatlarining roli, mamlakatimizda qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalarning mustahkamligini ta'minlashda mavjud muammolar, vazifalar va istiqbol ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan tahlil"[11] etilgan.

"Globallashuv davrining o'ziga xos, "xarakterli" xususiyati shundaki, global ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlarning sodir bo'lishida davlatlarning hududiy chegaralari, millatlarning o'ziga xos mentaliteti yoki boshqa ijtimoiy, siyosiy, huquqiy omillar to'sqinlik qila olmaydi"[12]. Globallashuv barcha millatlar va xalqlar hayotiga ta'sir ko'rsatadi, undan voz kechish, ta'sirini tan olmaslik, qabul qilmaslikning imkoniyati deyarli mavjud emas. Bugungi kunda global ma'naviy hodisa sifatida e'tirof etilayotgan milliy va umuminsoniy darajada qadriyatlar tizimining transformatsiyasi ham Yer yuzining barcha mintaqalariga etib bordi. Xususan, zamonaviy o'zbek jamiyatida ham qadriyatlarining o'zgarishini, ijtimoiy-aksiologik transformatsiyani kuzatishimiz mumkin. Yangi O'zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi fenomenining sotsiomadaniy hamda falsafiy jihatlariga to'xtalib o'tishdan oldin "Yangi O'zbekiston fenomeni" va undagi ijtimoiy qadriyatlar tizimi haqida qisqacha fikr yuritsak.

"Yangi O'zbekiston" bugungi kunda mamlakatimizda sodir bo'layotgan islohotlarning pirovard yo'nalishi va maqsadini ifodalovchi fenomenal, ma'lum darajada reallashayotgan ideal hodisa, "Vatanimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo'lining yuqori bosqichi"[13] hisoblanadi. Yangi O'zbekiston – O'zbekiston taraqqiyotining keyingi davri, ijtimoiy zaruriyat hamda xalqimizning asrlar davomida shakllangan ezgu g'oyalari, ideallarining amaliy ifodasi. Yangi O'zbekiston ma'naviy makon sifatida bugungi globallashuv davridagi ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy o'zgarishlardan uzilib qolmagan, balki an'anaviy milliy qadriyatlarimizga asoslangan rivojlanishning zamonaviy modelini tashkil etadi. Bohsqacha qilib aytganda, "Yangi O'zbekiston – kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga – chinakam ko'mak va yordam berish, mehr-oqibat ko'rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan ijtimoiy makondir"[13].

Shu bilan bir qatorda, Yangi O'zbekistonda qadriyatlarining transformatsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektik bog'liqligining ortib borishi real voqelikning bir qismi hisoblanadi. Bugun O'zbekistonda nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizim yangilanmoqda, huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda, balki milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq ma'naviy jarayonda qadriyatlar o'zgarishining ijtimoiy, madaniy va falsafiy xususiyatlari ham namoyon bo'lmoqda. Har qanday jamiyatda bo'lgani kabi zamonaviy O'zbekistonda ham qadriyatlar tizimi jamiyatning madaniy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Qadriyatlar tizimining transformatsiyasini tushunish uchun falsafiy nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi, chunki aynan falsafa qadriyatlar o'zgarishining tub zamirida yotgan birlamchi omillarni va mafkuralarni ochib bera oladi. Mamlakatimizda sodir bo'layotgan qadriyatlar transformatsiyasini ijtimoiy-madaniy va falsafiy jihatdan tahlil qilishdan asosiy maqsad ham aksiologik transformatsiyaning asosiy tendensiyalarni aniqlash hamda ularning ijtimoiy hayotga dialektik ta'sirini tushunishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonning eng o‘ziga xos xususiyati islohotlarning asosiy mazmuni inson qadriga, uning erkinliklari, manfaatlarini ta‘minlashga yo‘nalganligi bilan namoyon bo‘ladi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarning mazmunida ham aynan shu tamoyil yotadi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar qadriyatlar tizimining ham transformatsiyasini o‘zida aks ettiradi. Bugungi kunda ijtimoiy ongda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar qadriyatlar qayta baholanishi, unifikatsiyasi va yangi qadriyatlarning vujudga kelishida ham namoyon bo‘lmoqda. Masalan, virtual makon va axborot texnologiyalari ta‘sir doirasining kengayishi, ayollarning jamiyatdagi rolining qayta ko‘rib chiqilishi chuqur ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

O‘zbekistondagi ijtimoiy o‘zgarishlarning tahlili globallashuv va texnologik taraqqiyot ta‘sirida jamiyatning yangi qiyofasi qanday shakllanayotganini anglash imkonini beradi. Umuman olganda, qadriyatlar transformatsiyasini salbiy tendensiya sifatida anglamaslik, talqin qilmaslik lozim. Zero, inson va jamiyat hamisha harakatda bo‘lar ekan, undagi ideallar, tamoyillar va qadriyatlar ham evolyusiyaga uchrab, sayqallanib, o‘zgarib boraveradi.

Qadriyatlar transformatsiyasi kabi mazkur hodisaning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan globallashuv hodisasi ham o‘zining ijobiy va salbiy xususiyatlariga ega bo‘lib, tadqiqot doirasida 307 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, bugungi qadriyatlar transformatsiyasida globallashuv davrining ta‘siri beqiyos. So‘rovnomada globallashuvning jamiyatimizga ko‘rsatayotgan salbiy ta‘sirlari sifatida qaysi omillarni hisoblashi bo‘yicha respondentlarning fikri o‘rganildi. 15,4 foiz respondentlarning fikricha, globallashuv erkaklarning oiladagi an‘anaviy “oila boshlig‘i” statusi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, respondentlar tomonidan vaqtning keraksiz narsalarga sarflanishi (17,0 %), nosha‘riy nikohlar va nikohdan tashqari munosabatlarning ortishi (14,2 %), farzandlar tarbiyasidagi muammolar ko‘payishi (12,3 %), turli zararli illatlarning ortishi (12,0 %), oilaviy ajrashishlarning ko‘payishi (10,4 %), “Ommaviy madaniyat”ning xavfi (9,5 %), migratsiya tufayli oilalarning birga yashamasligi (9,5 %) kabi holatlar ham globallashuvning salbiy ta‘siri sifatida qayd etilgan.

Yangi O‘zbekistondagi qadriyatlar transformatsiyasi qadriyatlar an‘anaviyligi va tadrijiyligi tamoyiliga ham tayanadi, o‘zgarishlar jarayonida an‘anaviy qadriyatlar, urf-odat va an‘analar to‘liq inkor etilmaydi, takomillashtiriladi, zamon talablari bilan uyg‘unlashadi. “Qadriyatlar an‘anaviyligi va tadrijiyligi millat tomonidan asrlar davomida to‘plangan moddiy va ma‘naviy boyliklarni, qadriyatlarni vorisiylik tamoyili asosida keyingi avlodlarga yetkazish, mazkur jarayonda tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot talablariga muvofiq evolyusion shaklda muntazam boyib yoki yangilanib boradigan ma‘naviy tendensiyalarning namoyon bo‘lishini ifodalaydi”[14]. Aynan an‘anaviylik va tadrijiylik tamoyili jamiyatning barqaror rivojlanishi, ma‘naviy tarbiyaning izchilligini ta‘minlaydi, qadriyatlar tub sifatli o‘zgarishlarining millat uchun og‘riqli, murakkab va muammoli bo‘lishining oldini oladi.

“Qadriyatlar transformatsiyasi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishiga olib keladi. Yangi qadriyatlar tizimining shakllanishida yuqorida tilga olingan ikki jihat – qadriyatlar tadrijiyligi, ma‘naviy merosga tayanishi hamda yangilanishning obektiv zaruriyat ekanligi inobatga olinishi lozim. Umuman olganda yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi”[15]. Yangi O‘zbekistonda yangi qadriyatlar tizimini vujudga kelish jarayoni quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

a) ijtimoiy hayotda yangilik vujudga kelib, takomillashib borgani sari, eskilikning amal qilish imkoniyatlari kamayib boradi;

b) eski qadriyatlar qarama-qarshiligi bo‘lsa-da, reallikka aylanayotgan yangi qadriyatlar amal qilish uchun shart-sharoitlar yetilib boradi, eski qadriyatlar tizimi inkor etila boradi;

d) eski qadriyatlar miqyosi o‘zgaradi, ta‘sir doirasi kamayadi, avval xususiy, so‘ngra esa umumiy sifatli o‘zgarish ro‘y beradi;

e) eski qadriyatlar tizimi amal qilishdan to‘xtashi bilan yangi tizim uni inkor etishni tugallash jarayoniga kiradi;

f) shu bilan birga yangi tizimning to‘liq shakllanishi, eskidan qolgan jihatlarni sarhisob qilish jarayoni boshlanadi;

g) shakllanib kelayotgan yangi tizim jamiyatdagi yangiliklarni o‘zlashtirishi bilan birga yangi ehtiyojlar, maqsadlar va qiziqishlarni ham vujudga keltiradi;

h) yangi tizimning barqaror holga kelishi uchun muayyan yo‘l, usullarni tanlash, chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatga aylanadi”.

“Shu bilan birga, qadriyatlar tizimining transformatsiyasini “eski” va “yangi” qadriyatlar tizimining to‘g‘ridan to‘g‘ri, o‘zaro almashinuvi, birining to‘xtashi va ikkinchisini boshlanishi deb tushunmaslik kerak. Fikrimizcha, jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasi uzluksiz sodir bo‘luvchi jarayon bo‘lib, barcha ijtimoiy-ma‘naviy hodisalarda bo‘lgani kabi uning konkret chegaralari, yangilanishining aniq davrini belgilashning imkoniyati mavjud emas. Yangi qadriyatlar tizimini ham faqatgina real vaqt rejimida anglash, his qilish mumkin. Shu bilan birga yangi qadriyatlar tizimi ham turg‘un (statik) emas, balki harakatchan (dinamik) hodisa, u ham doimiy o‘zgarishlarga uchraydi. O‘zgarishlarning ba‘zilari sifatii ahamiyatga ega bo‘lsa, ba‘zilari xususii, individual darajada sodir bo‘lishi mumkin”[17].

“Yangi O‘zbekistondagi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi, qadriyatlarning transformatsion xususiyatlarini ham doimii faol ma‘navii harakatda ekanligini anglashimiz mumkin. Mazkur tendensiyani bugungi kunda zamonavii o‘zbek jamiyatidagi qadriyatlarni tizimlashtirishga harakat qilayotgan ilmiy doiralarning faoliyatida, tadqiqotlarining natijalarida ham kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, Respublikamizdagi yetakchi “aql markazlari”dan biri bo‘lgan Makroiqtisodii va hududii tadqiqotlar instituti tomonidan xalqimizning boy tarixi, ma‘navii merosi, turmush tarzi, hayotii qarashlari va e‘tiqodidan kelib chiqqan holda muhim millii qadriyatlarimiz ro‘yxati e‘lon qilingan. Mazkur ro‘yxatga ota-onaga ehtirom, tozalik, harakatda baraka (mehnasevarlik), o‘zbek tili, diniy bag‘rikenglik, erkin va mustaqil fikrlash (so‘z erkinligi), lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo‘stlik va rozi-rizolik qadriyatlari kiritilib, millii va oilavii qadriyatlarni mustahkamlash Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti sifatida talqin etilgan”[18]. “Mazkur qadriyatlarning ro‘yxatiga e‘tibor qarasa, ularning barchasi o‘zbek xalqi uchun azaldan ijtimoiy ahamiyat kasb etgan qadriyatlar ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa yangi qadriyatlar tizimi keskin sifatii o‘zgarishlardan ko‘ra, tarixii taraqqiyotning ma‘lum davridagi ijtimoiy talablardan kelib chiqib, mavjud qadriyatlar tizimidagi asosii qadriyatlarning joyi almashinuvi, ijtimoiy-ma‘navii ehtiyojning qondirilishi mahsuli ekanligini ko‘rsatadi”[19].

ADABIYOTLAR:

1. Ўzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/oila-adriyatining-umri-bardavom-b-lmo-i-shart-14-05-2020>
2. Обеспечение баланса частноправового регулирования общественных отношений в парадигме конвергенции норм права: научные воззрения доктора юридических наук, профессора А.Н. Левушкина: монография (в двух томах, том 2) (Левушкин А.Н.). "Юстицинформ", 2023 г.
3. 17308854099397183dar aja.pdf <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3a014339f01.file>.
4. <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-NOVEMBER-FULL-JOURNAL-2022.pdf>.
5. Harman H. A Woman’s Work. – Penguin UK, 2017. – P. 416; Cheatham H. E., Stewart J. V. Black families: Interdisciplinary perspectives. – Routledge, 2017. – P. 402.; Шнейдер Л. Б. Семья: оглядываясь вперед. – М.: Издательский дом "Питер", 2013. – С. 368.; Венингер О. Пол и характер.–Ростов на Дону, Феникс, 1998; Семья 1 2. Книга для чтения.–М.: Политиздат, 1991; Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане.–Ташкент, 2012. va boshqalar
6. Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства. – Litres, 2022. – С. 250.
7. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.
8. Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari. – Toshkent: “Ўqituvchi” nashriyot-matbaa ijodii uyi, 2008.
9. Социальная адаптация молодой семьи в России.
10. <https://cheloveknauka.com/sotsialno-duhovnye-tsennosti-i-problemy-molodoy-semi>.

11. Марченко М.Н., Дерябина Е.М. Теория государства и права России: учебное пособие: в 2 т. Т. 1. Государство. - "Проспект", 2019 г.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Ўzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2-nashr. – Toshkent: “Ўzbekiston” nashriyoti, 2022. – В. 24.
13. Nazarov Q., To’xtayev H. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2022. – В. 230.
14. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/26/NamDU-ARM-8474-Jahon_mamlakatlari_mafkuralariga_bir_nazar.pdf.
15. To’xtayev H. Zamonaviy Ўzbekiston rivojining hozirgi bosqichida yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – В. 728-738.
16. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/26/NamDU-ARM-8474-Jahon_mamlakatlari_mafkuralariga_bir_nazar.pdf.
17. Obidxo’jayev U. Milliy qadriyatlar haqida // Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti – 10.05.2023. – (murojaat sanasi 19.01.2024) https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/Milliy_qadriyatlar_haqida.
18. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/26/NamDU-ARM-8474-Jahon_mamlakatlari_mafkuralariga_bir_nazar.pdf.

REZYUME:

Mazkur maqolada Oila masalalariga doir tadqiqotlarning falsafiy talqini, har qanday ilmiy nazariy gipotezalar singari, dunyo va inson haqidagi obyektiv asosli bilimlar tizimiga asoslanadi.

Kalit so’zlar: oila instituti, oila taraqqiyotining asosiy yo’nalishlari, huquqiy-meъyoriy asos, oilalarda maъnaviy-axloqiy muhit, iqtisodiy barqarorlik, demografik rivojlanish, xalqaro ilg’or tajriba.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье показано, что философская интерпретация исследований по вопросам семьи, как и любые научные теоретические гипотезы, основывается на системе объективно обоснованных знаний о мире и человеке.

Ключевые слова: институт семьи, основные направления развития семьи, правовая и нормативная база, духовно-нравственная среда в семьях, экономическая стабильность, демографическое развитие, передовой международный опыт.

RESUME:

In this article, the philosophical interpretation of research on family issues, like any scientific theoretical hypotheses, is based on a system of objectively based knowledge about the world and man.

Keywords: family institution, main directions of family development, legal and regulatory framework, spiritual and moral environment in families, economic stability, demographic development, international best practices.